

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING NUTQIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

Nazirova Robiya Mamirjon qizi

Farg'ona davlat universiteti

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy kompetensiyasini shakllantirishning nazariy va metodik asoslari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Nutqiy kompetensiya tushunchasi, uning tarkibiy qismlari, boshlang'ich ta'lim bosqichida til o'rganish jarayonidagi roli, pedagogik yondashuvlar va zamonaviy metodikalar asosida rivojlantirish imkoniyatlari yoritiladi. Shuningdek, zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanishning ahamiyati, yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda kompetensiyani oshirish strategiyalari bayon qilinadi. Tadqiqotda ilg'or xorijiy va mahalliy tajribalarga tayanilgan holda nutqiy rivojlanish samaradorligini oshirishga qaratilgan nazariy tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: nutqiy kompetensiya, boshlang'ich ta'lim, til o'rgatish, lingvodidaktika, kommunikativ ko'nikmalar, metodika, ta'lim texnologiyalari

Nutqiy kompetensiyani rivojlantirish bugungi kunda ta'lim jarayonining asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarida bu kompetensiyani shakllantirish ularning keyingi ta'lim bosqichlaridagi muvaffaqiyatli o'qishlari, fikrlash qobiliyatlari, mustaqil fikr yuritish olish malakalariga bevosita ta'sir qiladi. Nutqiy kompetensiya bu – shaxsning o'z fikrini aniq, to'g'ri, tushunarli va mantiqiy tarzda ifodalash, boshqalarni tushunish, turli kommunikativ vaziyatlarda to'g'ri munosabat bildirish layoqatidir. Bu kompetensiya til o'rganishning asosiy poydevoridir va boshqa fanlarni o'zlashtirishda ham hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Boshlang'ich sinfda nutqiy kompetensiyani shakllantirish bo'yicha olib boriladigan ishlar o'quvchilarning tilga oid bilimlarini mustahkamlash, og'zaki va yozma nutq faoliyatini faollashtirish, og'zaki muloqot madaniyatini rivojlantirishga yo'naltiriladi. Ushbu jarayonning nazariy asoslarini tahlil qilishda tilshunoslik, psixologiya, pedagogika, didaktika va lingvodidaktika fanlarining yondashuvlarini kompleks yoritish zarur. Nutqiy kompetensiya nafaqat grammatik bilimlarni o'z ichiga oladi, balki madaniy, ijtimoiy, emotsional va etik komponentlarni ham qamrab oladi.

Shuningdek, boshlang'ich sinf o'quvchilari hali mustaqil fikr yuritish, mavzuni to'liq bayon qilish, kontekstda nutq qurish kabi ko'nikmalarga ega emasligi bois, ularda bu kompetensiyani bosqichma-bosqich shakllantirish lozim. Bu jarayonda maktabgacha yoshdan boshlab berilgan tayyorgarlik, oilaviy muhit, atrofdagi nutqiy muhit ham muhim rol o'ynaydi. Pedagog nutqining boyligi, emotsional boyligi va talaffuz aniqligi esa o'quvchilarga namuna bo'ladi.

Nutqiy kompetensiyani shakllantirish nazariyasida bir nechta yondashuvlar mavjud. Jumladan, kommunikativ yondashuv, faoliyatga yo'naltirilgan yondashuv, kognitiv yondashuv va lingvistik yondashuvlarni alohida ta'kidlash mumkin. Kommunikativ yondashuv asosida o'quvchi va o'qituvchi o'rtasidagi muloqot, o'quvchining o'z tengdoshlari bilan erkin fikr almashishi, og'zaki nutqni qo'llashga yo'naltiriladi. Faoliyatga yo'naltirilgan yondashuvda esa

o'quvchining mustaqil muloqotga kirishishi, muammoni yechish uchun til vositalaridan foydalana olishi talab qilinadi.

Til kompetensiyasini shakllantirishda grammatik, leksik, fonetik bilimlarni berish muhim bo'lsa-da, bu bilimlar kommunikativ vaziyatda to'g'ri va o'rinli qo'llanilmas ekan, natija bermaydi. Shu sababli o'quvchilarda tilning amaliy jihatini shakllantirish maqsadida rolli o'yinlar, suhbatlar, mashqlar, vaziyatli topshiriqlardan keng foydalanish kerak. Yana bir muhim jihat – bolalarda eshitish, esda saqlash, qayta hikoya qilish, fikr bildirish kabi psixik funksiyalarni faollashtirishdir. Chunki bu funksiyalar nutqiy kompetensiyaning shakllanishida asosiy o'rin tutadi.

Zamonaviy ta'lim jarayonida interaktiv metodlardan foydalanish orqali o'quvchilarda tilga bo'lgan qiziqishni oshirish, ularni muloqotga undash mumkin. Masalan, "fikrlar bahsi", "savol-javob", "klasterlar", "fikrlar zanjiri" kabi metodlar o'quvchining faolligini oshirib, uning nutqiy ifoda imkoniyatlarini kengaytiradi. Bu metodlar orqali bolalar o'z fikrini erkin ifoda etish, boshqalarning fikrini tinglash, o'z nuqtai nazarini dalillar asosida isbotlash ko'nikmalarini egallaydi. Bunday yondashuvlar nafaqat o'zbek tilini o'rgatishda, balki boshqa fanlarda ham nutqiy kompetensiyani rivojlantirish imkonini beradi.

Psixologik tadqiqotlarga ko'ra, boshlang'ich sinf o'quvchilari o'z fikrlarini qisqa, sodda, holatli jumlar orqali ifoda etadi. Demak, ularning tafakkuri obrazli va emotsional xarakterga ega. Shu sababli nutqiy kompetensiyani rivojlantirishda dramatik mashg'ulotlar, obrazli ifoda mashqlari, erkin fikrlashga undovchi topshiriqlardan foydalanish muhimdir. Rivojlantiruvchi o'yinlar, hikoyalarni yakunlash, vaziyatni tasvirlab berish kabi topshiriqlar muloqotga bo'lgan ichki ehtiyojni kuchaytiradi.

Nutqiy kompetensiyaning tarkibiy qismlariga fonetik, leksik, grammatik, stilistik, pragmatik va madaniy komponentlar kiradi. Boshlang'ich sinfda aynan fonetik va leksik komponentlarga alohida e'tibor qaratiladi. To'g'ri talaffuz qilish, urg'uni aniqlik bilan qo'llay olish, so'z boyligini oshirish orqali o'quvchilarda ifodali nutq asoslari shakllanadi. Shu bilan birga, yozma nutqni rivojlantirish ham og'zaki nutq bilan parallel olib borilishi kerak. Chunki yozma ifoda bolani nutqini puxta rejalashtirishga o'rgatadi, grammatika va imloviy me'yorlarga amal qilish ko'nikmasini mustahkamlaydi.

Boshlang'ich sinfda nutqiy kompetensiyani shakllantirish uchun darsdan tashqari mashg'ulotlar – badiiy o'qish, dramatizatsiya, hikoya aytish musobaqalari, insholar tanlovi, og'zaki va yozma ijod mashg'ulotlari katta imkoniyat yaratadi. O'quvchilarni turli janrlar – ertak, rivoyat, maqol, hikoya, she'r bilan tanishtirish, ularni tahlil qilish, obrazli nutq vositalaridan foydalanishga o'rgatish zarur.

Shuningdek, ona tilidan tashqari chet tillarini o'qitish jarayonida ham nutqiy kompetensiya masalasi dolzarb hisoblanadi. Chet tilida erkin muloqot qilish, ma'lumotni izohlab bera olish, savollarga javob bera olish, fikr bildirish bu kompetensiyaning yuqori bosqichiga xos ko'rinishlardir. Shuning uchun til o'qitishda integratsiyalashgan yondashuv, ya'ni tilni boshqa fanlar bilan uyg'unlashtirish orqali nutqiy faoliyatni kuchaytirish tavsiya etiladi.

Axborot texnologiyalaridan foydalanish ham bu borada samaralidir. Multimediali darslar, interaktiv testlar, audio va video materiallar, virtual muloqot platformalari o'quvchilarning tilga bo'lgan qiziqishini oshirib, ularni faol muloqotga undaydi. Masalan, o'quvchining o'z ovozi

yoʻzib, tahlil qilish imkoniyati, muloqotni ekranda modellashtirish, multimodal vositalar yordamida soʻz boʻyligini kengaytirish metodik jihatdan foydalidir.

Xulosa oʻrnida aytish mumkinki, boshlangʻich sinf oʻquvchilarida nutqiy kompetensiyani shakllantirish koʻp omilli, kompleks yondashuvni talab qiluvchi jarayondir. Bu borada oʻqituvchining metodik tayyorgarligi, innovatsion metodlardan foydalanish darajasi, oʻquvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olishi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Nutqiy kompetensiyaning shakllanishi bolalarning ijtimoiy moslashuvi, fikr bildirish madaniyati va oʻz fikrini erkin ifoda eta olish qobiliyatini mustahkamlab, ularning kelajakdagi kommunikativ muvaffaqiyatiga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Gʻafurov N. Til oʻrganish psixologiyasi. – Toshkent: Fan, 2020.
2. Saidova M. Lingvodidaktika asoslari. – Toshkent: Oʻqituvchi, 2019.
3. Vygotsky L.S. Myshlenie i rech. – Moskva: Pedagogika, 1996.
4. Jalolov J. Til oʻqitish metodikasi. – Toshkent: Oʻzbekiston, 2021.
5. Kuznetsova T.M. Razvitie rechevoy kompetentsii mladshix shkolnikov. – Moskva: Prosveshchenie, 2018.
6. Hasanboeva M. Boshlangʻich taʼlimda nutq rivojlantirish metodikasi. – Toshkent, 2022.
7. Common European Framework of Reference for Languages (CEFR). – Council of Europe, 2020.
8. Chomsky N. Aspects of the Theory of Syntax. – Cambridge: MIT Press, 1965.
9. UNESCO. Language and early childhood development. – Paris, 2020.